


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



"Kelishildi"  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi

\_\_\_\_\_ 2021



"Tasdiqlayman"  
Qabul komissiyasi raisi, Navoiy  
davlat pedagogika instituti rektori  
B.B.Sobirov

2021

**5A111701 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI  
(BOSHLANG'ICH TA'LIM) MUTAXASSISLIGI MAGISTRATURASI  
BO'YICHA BILIM DARAJASINI BELGILOVCHI MAXSUS FANLARDAN  
SINOV DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Mazkur dastur 2021-2022 o‘quv yilida **5A111701 - “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlanguich ta’lim)”** mutaxassisligi bo‘yicha magistraturaga kiruvchilar uchun kirish sinovlari dasturi, savolnomalari va baholash mezonlarini o‘z ichiga olgan. Dastur savolnama va mezonlari oliy ta’limning 5111700 – Boshlanguich ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi Davlat ta’lim standartiga hamda Navoiy davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan (20\_\_ yil \_\_\_\_dagi \_\_-sonli majlis bayoni) dasturga asoslanib tuzilgan.

**Tuzuvchilar:**

**Ernazarova M.S.** - NavDPI f.f.d.(DSc), dots.,  
Boshlanguich ta’lim kafedrasi mudiri;

**Suynov M.S.** - NavDPI Boshlanguich ta’lim  
kafedrasi dotsenti;

**Alimov A.Ya.** - NavDPI Boshlanguich ta’lim  
kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Saidova N.R.** - NavDPI Boshlanguich ta’lim  
kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**Bobomurodova A.Ya.** - p.f.n.

**Pirimov A.P.-** NavDPI Boshlanguich ta’lim  
kafedrasi dotsenti.

Dastur Navoiy davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2021-yil \_\_\_\_dagi \_\_-sonli majlis bayoni.

## **KIRISH**

### **Dasturning maqsadi va vazifalari**

Mazkur dastur 5A111701 - “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)” mutaxassisligi bo‘yicha magistraturaga kiruvchilarining boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan fanlarning nazariy asoslari, boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasini bilishi, umumiyligini uslublar, boshlang‘ich sinfda ona tili, matematika, mehnat, tabiat fanlarini o‘qitish, shuningdek tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasini tashkil etish yo‘llari, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish bo‘yicha layoqatlarini aniqlashga mo‘ljallangan.

**Dasturning maqsadi** magistraturaga kiruvchilarining bakalavriatura bosqichida boshlang‘ich ta’limda o‘qitishning ilmiy-metodik muammolarini tadqiqot qilishda zarur bo‘ladigan ilmiy-bilish nazariyasi, boshlang‘ich ta’limda o‘qitishning didaktik tamoyillari, uslublari o‘zlashtirganligini aniqlash. Shuningdek, magistraturaga kiruvchilarini boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan fanlarning nazariy asoslari, boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasini bilishi, umumiyligini uslublar, boshlang‘ich sinfda ona tili, matematika, mehnat, tabiat fanlarini o‘qitish, shuningdek tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasini tashkil etish yo‘llari, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uslublari va tamoyillari o‘zlashtirganlik va amalda qo‘llay olish malakalarini darajasini aniqlash.

#### **Dasturning vazifalari:** magistraturaga kiruvchilarining

- boshlang‘ich ta’lim tadqiqotlari uslublari bo‘yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlar bilan tanishganligi darajasini;
- boshlang‘ich sinfda ona tili, matematika, mehnat, tabiat fanlarini o‘qitish, shuningdek tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasini tadqiq qilishning ilmiy yo‘nalishlari bilishi darajasini;
- tadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining aniq vazifasini anglay olish darajasini;
- boshlang‘ich ta’lim tadqiqotlar sohasining ilmiy yo‘nalishlari, tadqiqotlar sohasida ilmiy mushohada va ilmiy tahlil masalalarini o‘zlashtira organliklarini;
- ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish malakalarining mavjudligini;
- ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari haqida umumiyligini tushunchalarga ega ekanligini ko‘rsatib berish.

**I. Dasturning asosiy mazmuni.** Mazkur dasturning asosiy mazmuni 5A111701 - “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)” mutaxassisligi bo‘yicha magistraturaga qabul jarayonida o‘tkaziladigan mutaxassislik bo‘yicha magistraturaga kiruvchilarining bakalavr ta’lim bosqichida olgan bilimlariga hamda fanlar bo‘yicha mustaqil ta’limga tayyorgarlik jarayonlarida, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishi bajarish jarayonida

shakllantirilgan ilmiy adabiyotlar bilan ishslash, tarixiy tahlil va tarixiy taqqoslash orqali tarixiy dalil va manbalarning ilmiy tadqiqot jarayonlariga jalg etish, ilmiy tadqiqot ishlari va manbaviy hujjatlar bilan ishslash ko'nikmalarining shakllantirilganligi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari haqidagi umumiy tushunchalari, ilmiy mushohada qila olish va yangi g'oyalar shakllantira olish qobiliyati, ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish mazmuni bilan tanishganligi, tadqiqot natijalarini tahlil qila olish qobiliyatining mavjudligi, fanning ilmiy va ta'limiy xususiyatlarini o'zlashtirish jarayonida o'zlashtirgan bilimlari va malakalarini aniqlashga yo'naltirilgan masalalarni qamrab olgan.

## **1. Boshlang'ich sinfda ona tili, matematika, mehnat, tabiat fanlarini o'qitish metodikasini tadqiq qilishning ilmiy yo'nalishlari**

### **Ona tili o'qitish metodikasi fani bo'yicha:**

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining predmeti va vazifalari. Ona o'qitish tili metodikasining o'rganish predmeti ta'lim berish sharoitida ona tilini egallash jarayonidir. Metodikaning ta'lim berish bilan bir vaqtda o'quvchilarni tarbiyalashga ular nutqi, tafakkurini o'stirishga, ularni shaxs sifatida rivojlantirishga oid talablarni hisobga olish. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining nimani o'quvchi kerak, qanday o'qitish kerak, nega shunday o'qitish kerak, boshqacha emas savollariga javob tayyorlab berish.

Maktab ta'lim tizimida va hayotda ona tilining tutgan o'rni. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishda izchillikka va istiqbolga rioya qilishning zaruriyligi. Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmuni va mashg'ulot turlari. Boshlang'ich sinflar ona tili dasturini tuzilish prinsiplari. Dastur bo'limlari, ularning umumiy va o'ziga xos tomonlari. Har bir bo'lim yuzasidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi.

Boshlang'ich sinflarga ona tili o'qitish metodikasining ilmiy asoslari va uning boshqa fanlar orasida tutgan o'rni. Metodikaning dunyoni bilish nazariyasi bilan til haqidagi fan, pedagogika, ruhshunoslik (psixologiya), psixolingvistika, logika, adabiyotshunoslik fanlari bilan bog'liqligi.

Ona tili o'qitish prinsiplari. Ona tili o'qitish metodikasining tamoyillarini ishlab chiqishda boshqa fanlarning ko'rsatmalariga asoslanish. Til materiyasiga e'tibor berish tamoyili, tilning ichki bog'liqligi, tilga sezgirlikni tarbiyalash, tilning ifodaliligiga e'tibor berish, og'zaki nutqning yozma nutqdan oldin shakllantirish tamoyili.

Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish usullari. Nazariy tekshirish usullari: hodisaning metodik asosini, bog'lik fanlarni o'rganish: "masala tarixi" ni o'rganib, uni hozirgi vazifalar nuqtai nazaridan baholash: yaqin fanlar tekshirish

usullarini o‘rganish: tajriba asosida olingen materiallarni tahlil qilish va amaliy tavsyanomalarini shakllantirish. Empirik (tajribaga asoslangan) tekshirish usullari: ilg‘or o‘qituvchi lar ish tajribasini o‘rganish: o‘qitish jarayonini maqsadga muvofiq kuzatish: metodika taraqqiyotida keng tarqalgan eksperiment usuli, uning oldingilardan farqi, vazifalari. Tadqiqot bosqichlari. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish sohasidagi metodik meroslarning qisqacha tavsifnomasi.

Savod o‘rgatish metodikasi. Savod o‘rgatish metodikasining maqsad va vazifalari. O‘qish va yozish nutqiy faoliyat turidir. Maktabda endigina o‘qishni boshlagan bola va savodli kishining o‘qish va yozuv jarayonida psixo-fiziologik tahlil. O‘zbek tilining tovush tuzilishi va grafikasi, ularning o‘zaro bog‘liqligi.

Savod o‘rgatishda hozirgi zamon analiz-sintez tovush metodi. Savod o‘rgatishda hozirgi zamon analiz-sintez tovush metodikasining an'anaviy (odat bo‘lib qolgan) prinsiplari tarbiyalovchi va o‘stiruvchi xususiyati, o‘quvchilarning jonli nutqiga asoslanish, metod asosiga tovush olinishi o‘qishbirligi bo‘lgan ekani; tashkiliy tomondan tayyorlov va asosiy davrga bo‘linishi va nisbatan yaqindan shakllagan yoki tashkil topish jarayonida bo‘lgan prinsiplari. Savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga differensial va individual yondashish; grammatika va imloga oid boshlang‘ich tushunchalarni nazariyasiz amaliy berib borish; so‘zni bo‘g‘in-tovush tomonidan tahlil; tushunchaning nusxasini chizish. Modellashtirish elementini kiruvchi; (o‘quvchilarni tarbiyalash).

Savod o‘rgatish darslarining tarbiyaviy vazifalari. Bolalarning savod o‘rgatishga tayyorgarligini o‘rganish. Savod o‘rgatish jarayoni. Savod o‘rgatishda tayyorlov davri, bu bosqichdagi o‘qish va yozuv darslarining mavzulari hamda ish turlari.

Savod o‘rgatishda asosiy davr (alifbe davri). Asosiy davrning vazifalari. Yangi material o‘rganiladigan mustahkamlanadigan o‘qish darslari va unda foydalananadigan ish turlari. Savod o‘rgatish jarayonida tovushlar va harflarni o‘rganish tartibiga “Alifbo” qurilishining bog‘liqligi. Savod o‘rgatishda differensial va individual yondashish.

Asosiy davrning yakunlovchi qismi, uning vazifalari. Savod o‘rgatish davrida o‘quv mashg‘ulotlarining asosiy turlari: tovush ustida ishlash; tovushlar artikulyatsiyasi, diksiya ustida ishlash. Savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarlar nutqini o‘stirish; lug‘at ustida ishlash. Savod o‘rgatish davrida grammatika, imlodan dastlabki amaliy bilimlar. Oz komponentli maktablarda darslarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Savod o‘rgatish davrida boshlang‘ich yozuvga o‘rgatish. Yozuvga o‘rgatish mazmuni va vazifalari; yozuv malakasini shakllantirish bosqichlari. Hozirgi yozuv shriftiga (harfiga) tavsifnomasi. Yozuvga o‘rgatish bilan bog‘liq holda husnixat malakasini shakllantirish usullari. Yozuvga o‘rgatishning tashkiliy va gigenik shartlari. harfni yozishga o‘rgatish yo‘llari. O‘quvchilarda uchraydigan tipik grafik

xatolar. Yozuvga o‘rgatish jarayonida asosiy imloviy elementlar. Yozuv darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish.Savod o‘rgatish davrida va yozuv darslari, ularga qo‘yiladigan talablar. O‘qish va yozuv darslarining turlari, o‘qish va yozuv darslari tizimi.Savod o‘rgatish sohasida yangi ilmiy tadqiqot ishlari. Savod o‘rgatish muammolari va istiqboli. Savod o‘rgatishga bolalarni oilada va bog‘chada tayyorlash.

Sinfda o‘qish metodikasi. Sinfda o‘qish darslarining ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati va vazifalari. Boshlang‘ich sinflarda o‘qishga o‘rgatish vazifalari va faol kitobxonlarni shakllantirish. O‘qish darslarining tarbiyalovchi imkoniyatlari.O‘qish malakasi haqida tushuncha. O‘qish malakalarining sifatlari: to‘g‘ri, tez (me'yorida tezlikda)

O‘qish malakalarining sifatlari ongli, ifodali o‘qish. O‘qish malakalarini shakllantirish jarayonini takomillashtirish yo‘llari. O‘qishda yo‘l qo‘yiladigan xato turlari va ularni yo‘qotish yo‘llari.

Ifodali o‘qish metodikasining asoslari.Nutq texnikasi: nafas olish, ovoz diksiya. Nutq logikasi: pauza, urg‘u ohang, intonatsiya.Adabiy asarni tahlil qilish va ifodali o‘qishga tayyorlash usullari. O‘qituvchining namunali ifodali o‘qishi; yozib olingan ifodali o‘qishni o‘qishi; o‘quvchining o‘qishini tahlil qilish; ifodali o‘qishga oldindan tayyorlash, qanday o‘qish kerakligini og‘zaki tushuntirish. Ifodali o‘qish musobaqasini o‘tkazishish.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish. Badiiy asarni tahlil qilishni adabiy asoslari. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning badiiy idrok etishdagi psixologik xususiyatlari.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar ustida ishslash jarayoni. Badiiy asar ustida ishslashning asosiy bosqichlari (birinchi sintez, analiz, ikkinchi sintez bosqichi).Badiiy asarni o‘qishga tayyorgarlik. Tayyorgarlik ishlarining vazifalari va didaktik shakllari. Asar mazmuni bilan birinchi tanishtirish (birinchi sintez). Asar mazmunini uning xususiyatlari bilan birgalikda tahlil qilish.Tahlil jarayonida matn ustida ishslash turlari: tanlab o‘qish(matnni berilgan topshiriqqa mos qismini o‘qish) savolga o‘z so‘zi bilan javob berish, matnni tasvirlash. Asar rejasini tuzish. Reja tuzishga tayyorlash mashqlari: berilgan sarlavqalardan kichik matn mazmuniga mosini tanlash; matnning o‘qituvchi bergen savolga javob bo‘ladigan qismini tanlab o‘qish.Har xil janrdagi asarlarni o‘qish usuliyatining o‘ziga xos xususiyatlari. Ertakni o‘qish metodikasi. Ertakni o‘qishning pedagogik qimmati. O‘quvchilarni ertak janri bilan tanishtirish. hayvonlar haqidagi ertaklar. Sehrli ertaklar. O‘quvchilarni ertakni o‘qishga tayyorlash.

Hikoya janridan asarni o‘qish metodikasi. She’riy nutqning xususiyatlari. She’riy tahlil qilish uslubiyoti. She’rni o‘qish darsida, asosiy ish turi ifodali o‘qish ekani. Lirk she’rni o‘qishga tayyorlash. Masal janridagi asarlarni o‘qish metodikasi. Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qish metodikasi. Topishmoq, tez aytish,

maqol janridagi asarlarni o‘qish metodikasi. Doston janridagi asarlarni o‘qish metodikasi. Sinfdan tashqari o‘qish metodikasi. Bolalarni mustaqil o‘qishi haqida tushuncha, uning vazifalari. To‘g‘ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnomasi. Boshlang‘ich maktabda kitobxon o‘quvchilarni shakllantirish bosqichlari. O‘quv materiallari va o‘qitish metodlariga qisqacha tavsifnomasi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarda kitobxonlik mustaqilligini shakllantiradigan mashg‘ulot va darslar qurilishini asosiy turlari.

Fonetika, grammatika, so‘z yasalishi va orfografiyani o‘rgatish metodikasi. Kichik yoshdagи o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tilini o‘rgatishning ahamiyati.

Ona tilini o‘rgatishning lingvistik asoslari. Boshlang‘ich ta’limda ona tilini o‘rgatish mazmuniga tavsifnomasi.

Fonetika va grafika asoslarini o‘rgatish usuliyati. Kichik yoshdagи o‘quvchilarning ona tilini o‘zlashtirishida fonetika bilimining ahamiyati. O‘quvchilarda so‘zning tovush va harf tarkibi haqidagi boshlang‘ich tasavvurini shakllantirish.

Tovushlar va harflar, unli va undosh, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularning yozuvda ifodalananishi.

Bo‘g‘in, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari bilan tanishtirish, ularni amaliy o‘zlashtirish ustida ishslash.

O‘quvchilarda grammatika va so‘z yasalishiga oid tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari.

Grammatik tushunchaning mohiyati va uni kichik yoshdagи o‘quvchilar o‘zlashtirishidagi qiyinchiliklar. Tushunchani o‘zlashtirish ustida ishslash jarayoni, uning shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘linishi. Birinchi tushunchaning muhim belgilarini ajratish maqsadida til materialini analiz qilish. Ikkinci bosqich tushuncha belgilarini umumlashtirish, atama berish. Uchinchi bosqich tushuncha ta’rifini ifodalash, belgilar mohiyatini va ular orasidagi bog‘lanishni aniqlash. To‘rtinchi bosqich-yangi til materiali asosida o‘rganilayotgan tushunchani aniqlash.

Kichik yoshdagи o‘quvchilar tushunchasi o‘zlashtirilgani ta’minlaydigan metodik shartlar; o‘quvchilar aqliy faoliyatining aktivligi; o‘quvchilarda so‘z va gapga lingvistik munosabatini o‘stirish ustida maqsadga yo‘naltirilgan ishlar; yangi tushunchani ilgari o‘rganilgan tushunchalar tizimga kiruvchi; ayrim til kategoriyalari bog‘lanishing mohiyati yangi til kategoriyasini o‘rganish jarayonida ochiladi; tushunchani ko‘rsatmali o‘rganish. Grammatik va so‘z yasalishiga oid mashqlar, ularning turlari. Tushunchani o‘zlashtirishning turli bosqichlarida grammatik mashqlarni tadbiql etish usuliyati. So‘zni va gapni tahlil qilish, uning turlari va tilni o‘rganish jarayonida undan foydalanish.

Boshlang‘ich sinflarda so‘zning morfemik tarkibini o‘rganish usuliyati. So‘zning morfemik tizimini o‘rganish tizimi. O‘zak va qo‘sishimcha ustida ishlashning mazmuni va metodikasi. So‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi ustida ishlash. So‘z turkumlarini o‘qitish metodikasi. Otni o‘rgatish tizimi. Otning leksik va grammatic ma’nosini ustida ishlash. Otlarda son haqida tushunchani o‘rganish usuliyati. Otlarning egalik qo‘sishchalarini bilan o‘zgarishini o‘rganish. Otlarning kelishik qo‘sishchalarini bilan o‘zgarishini o‘rgatish. Boshlang‘ich sinflarda sifatni o‘rganish tizimi. Mavzuni o‘ganishning vazifalari. Sifatni o‘rganish jarayonida leksik-stilistik ishlari.

Boshlang‘ich sinflarda sonni o‘rganish tizimi. Mavzuni o‘ganishning vazifalari. Olmosh, kishilik olmoshlarini o‘rganish usluyati.

Boshlang‘ich sinflarda fe'lni o‘rganish tizimi. Fe'lni o‘ganishniig vazifalari. Fe'lni o‘ganishda izchillik. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe'llarni o‘rganish

Fe'llarda zamon mavzusini o‘rganish. Fe'llarda shaxs-son qo‘sishchalarini. Fe'lni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar nutqini o‘stirish. Boshlang‘ich sinflarda sintaksis va punktuatsiya elementlarini o‘rganish. Materiallarni sinflarga joylashtirish tizimi. O‘quvchilarda asosiy sintaktik tushunchalarini shakllantirishning shart-sharoitlari. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni punktuatsiya bilan tanishtirish.

Orfografiyani o‘rganish uslubiyoti. To‘g‘ri yozishni o‘rgatishda grammatic va antigrammatik yo‘nalishlar. Orfografik malakaning psixologik tabiatini. Imlo qoidasi ustida ishlash usullari. Imloviy mashqlar grammatic-imloviy tahlil, ko‘chirib yozuv, diktant va uning turlari, leksik-grammatik tahlil, bayon. Mashqni tanlash me’yori. Imlo malakalarini shakllantirishning muhim shartlari.

Ona tilidan bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish. To‘rt yillik boshlang‘ich ta’lim “Ona tili” darslariga tavsifnomasi.

Ona tili darslari. Darsga umumiyligi tavsifnomasi. Ona tili darslarining turlari va qurilishi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish metodikasi. Kichik yoshdagi o‘uchilar nutqini o‘stirish yo‘llari va vazifalari. Nutq va uni o‘stirish tushunchasi. Nutq o‘stirish ona tili o‘quvchining vazifasidir. O‘quvchilar nutqiga qo‘yilgan talablar. Nutq o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda muhim vosita. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning ona tilidan mashg‘ulotlarning boshqa turlari bilan o‘zaro bog‘liqligi.

Lug‘at ustida ishlash. Leksikologiya – lug‘at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi. Maktabda lug‘at ustida ishlashning asosiy yo‘nalishlari. Lug‘atni boyitish: o‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish; nutqiy sharoit va uning lug‘atni boyitishdagi roli. So‘z ma’nosini tushuntirish usullari. Sinonim va antonim, ko‘p ma’noli so‘zlar ustida ishlash.

O‘qish, badiiy asarni qaytahikoyalash, materialni o‘rganish, bayon va inshoga tayyorlanish bilan bog‘liqholda o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish yo‘llari.

O'quvchilar nutqini o'stirish tizimida sintaktik ishlar. O'quvchilar egallaydigan sintaktik ko'nikmaning darjasи. Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasи va nutq ustida ishslash. Gap ustida ishslash mashqlarining turlari.

Bog'lanishli nutq va uni o'stirish vazifalari

Bog'lanishli nutq haqida umumiy tushuncha. Bog'lanishli nutqdan mashq turlari. Bog'lanishli nutqqa oid aniq ko'nikmalar. Matn turlari.

Bog'lanishli nutq. Og'zaki qayta hikoya qilish va yozma bayon. Namunaviy matnni qaytahikoyalash va bayon yozishga qo'yilgan talablar. Qayta hikoyalash va bayonning turlari. Namunaviy matnga yaqin yoki uni to'liq qayta hikoyalash va bayon: tanlab qayta hikoyalash: qishartirib qayta hikoyalash va bayon: ijodiy qayta hikoyalash va bayon.

Bog'lanishli nutq. Og'zaki hikoya va yozma insho. Insho-o'quvchilar bilimi, tafakkuri, tasavvurini ifodalash shakli, ular tildan egallagan barcha ko'nikmalarni mustaqil tadbiql etish vositasi. Og'zaki va yozma insho turlari. O'quvchilarni tarbiyalashda inshoning ahamiyati. Insho mavzusi, uni yoruvchi; material yig'ish, uni sistemaga solish, reja tuzish va inshoga tayyorlash: inshoni yozishda rejadan foydalananish ko'nikmasi, insho matnini til tomondan tayyorlash: inshoni yozish va takomillashtirish ustida ishslash. O'quvchilar inshosini tahlil qilish va undan keyingi ishlar.

Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari. O'quvchilar yo'l qo'yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to'g'rakash va oldini olish yo'llari.

Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar. Sinfdan tashhari ishlarning shakllari va vazifalari. Kuni uzaytirilgan guruhlarni ish turlari.

### **Ona tili va bolalar adabiyoti fani bo'yicha:**

Umumiy tilshunoslikdan ma'lumot. Til ijtimoiy, doim o'zgarib, rivojlanib turuvchi hodisadir. O'zbek tili - O'zbekiston Respublikasining Davlat tili ekanligi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tuzilish uzvlari (elementlari): tovushlar tizimi, leksikasi (yoki lug'at tarkibi), grammatik qurilishi. Milliy va adabiy til. O'zbek adabiy tili va uning tayanch dialekti (lahjasi). Adabiy tilning o g'zaki va yozma shakllari.

Tilning paydo bo'lishi, tillarning taraqqiyoti, tillarning tasnifi.

**Fonetika.** Fonetika haqida umumiy ma'lumot, uning nutq tovushlarini o'rganadigan soha ekanligi. Hozirgi zamon ona tilining fonetik va fonologik tizimi (sistemasi) haqida ma'lumot. Ona tilining fonetik vositalari: nutq tovushlari, urg'u, ohang (intonatsiya). Fonema, uning so'z ma'nosini farqlashdagi roli. Hozirgi ona tilining fonemalari. Nutq a'zolari va ularning vazifasi. Nutq apparati. Artikulyatsiya. Artikulyatsiya o'rni va artikulyatsiya usuli. Fonetik akustika, tovush balandligi, kuchi, tembri, tempi va cho'ziqligi.

**Ona tilining vokalizmi va konsonntizmi.** Unli tovushlar, tilning gorizontal, vertikal harakatiga ko'ra hamda lablarning ishtirokiga ko'ra unli tovushlar tasnifi.

Undosh tovushlar, ularning artikulyatsiya (hosil bo‘lish) o‘rniga, usuliga hamda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra tasnifi.

Nutqning asosiy fonetik birliklari: fraza (jumla), takt (sintagma), fonetik so‘z, bo‘g‘in, tovush. Urg‘u va uning turlari: so‘z urg‘usi (leksik urg‘u), gap urg‘usi (mantiqiy urg‘u); bog‘liq va erkin urg‘u. Urg‘u olmaydigan birliklar. Urg‘uning so‘z ma’nosini farqlashdagi roli.

Nutq jarayonida tovushlarning o‘zgarish xususiyatlari: kombinator o‘zgarishlar (assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza), pozitsion o‘zgarishlar.

### **Orfoepiya.**

Orfoepiya haqida umumiylar ma’lumot. Hozirgi ona adabiy tilining orfoepik me’yorlari, unlilar orfoepiyasi, ayrim undoshlar orfoepiyasi, ayrim grammatik shakllar orfoepiyasi. Ayrim orfoepik me’yorlarning imlo qoidalari (orfografik me’yorlarga) mos kelmaslik hollari.

### **Grafika va orfografiya.**

Ona tili grafikasi (yozuv tizimi) haqida ma’lumot. Harf tilning asosiy grafik vositasi ekanligi. Tovush va harf. Alifbo (alfavit).

Ona tili imlosi va uning asosiy tamoyil(prinsip)lari; morfologik, fonetik, an’anaviy-etimologik, differensiyalash, grafik tamoyillar. Morfologik tamoyilning asosiy va etakchi tamoyil ekanligi.

Ona tili imlosining asosiy qoidalari: ayrim harflar, o‘zak-negiz va qo‘sishimchalar, qo‘shma so‘zlar imlosi; bo‘ g‘in ko‘chirish, bosh harflarning yozilish qoidalari.

### **Leksikologiya.**

Leksika (lug‘at tarkibi) va leksikologiya haqida umumii ma’lumot.

Leksema va so‘z, ularning o‘zaro farqlari. So‘zning leksik va grammatik ma’nosi. Semema, sema. Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi. Ma’no ko‘chirishning asosiy turlari; metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik (ma’noning vazifaga ko‘ra ko‘chishi; ma’noning torayishi va kengayishi).

Ona tilida so‘zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari haqida ma’lumot. Omonimlar, ularning ko‘p ma’noli so‘zlardan (polisemantizmlardan) farqi. Sinonimlar (ma’nodosh so‘zlar) va sinonimiya qatori. Antonimlar. Paronimlar. Omonim, sinonim, antonim va paronimlarning asosiy turlari va nutqda qo‘llanish xususiyatlari.

Tarixiy shakllanish jihatdan hozirgi ona tili leksikasi: Hozirgi ona tili leksikasining ijtimoiy-dialektal tarkibi: umumxalq leksikasi; dialektal leksika-dialektizmlar; kasb-hunar leksikasi; termin va terminologik leksikasi (atamalar leksikasi); jargon va argolar.

Ona tilining nofaol leksikasi, neologizmlar (yangi paydo bo‘lgan so‘zlar). Hissiy-ta’siriy jihatdan ona tili lesikasi; umumiste’moldagi hissiy-ta’siriy bo‘yoqsiz va bo‘yoq dor so‘zlar.

**Frazeologiya.** Frazeologiya haqida ma’lumot. Frazema til va nutq birligi sifatida. Frazemalarning ma’no xususiyatlari ko‘ra asosiy belgilari va turlari.

**Leksikografiya.** Leksikografiya haqida umumiylar ma’lumot. Lug‘atlar va ularning tiplari: ensiklopedik (qomusiy) va lingvistik (yoki filologik) lug‘atlar. Bir tilli va ko‘p tilli lingvistik lu g‘atlar. Bir tilli lingvistik lug‘atlarning tiplari.

**Morfemika.** Morfemika va morfema haqida umumiylar ma’lumot. Morfema va uning turlari: o‘zak morfema va affiksial (qo‘sishimcha) morfema. Affiksial morfemalarning turlari: so‘z yasovchi, lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi affikslar. Affiksial morfemalari eng tuzilishiga ko‘ra turlari: sodda affikslar va murakkab affikslar.

**So‘z yasalishi (derivatsiya).** Tub va yasama so‘zlar. So‘z yasalishi (derivatsiya) haqida ma’lumot. Ona tilida so‘z yashash usullari: affiksatsiya, kompozitsiya, semantik, fonetik, abbreviatsiya. Affiksatsiya va kompozitsiya usullari - o‘zbek tilida so‘z yashashning eng asosiy usullari ekanligi.

**Grammatika.** Grammatika haqida umumiylar ma’lumot. So‘zning grammatik ma’nosi va grammatik shakli. So‘zlarning sintetik, analitik, juft va takroriy, aralash hamda nol ko‘rsatkichli shakllari. Grammatik kategoriya haqida umumiylar ma’lumot. Grammatik kategoriya, grammatik ma’no va ularni ifoda qiluvchi vositalar tizimi ekanligi. Morfologiya va sintaksis grammatikaning qismlari ekanligi.

**Morfologiya.** Morfologiya haqida umumiylar ma’lumot. Morfologiya grammatikaning so‘z turkumlari va shu turkumlarga xos kategorial, nokategorial shakllar tizimini, so‘zning birikish vaqtidagi o‘zgarishini tekshiradigan bo‘limi ekanligi. So‘zning morfologik tuzilishi so‘z shaklining qismlaridan (shakl yashash uchun asos bo‘luvchi hamda shakl hosil qiluvchi va so‘z o‘zgartuvchi affikslardan) iborat ekanligi.

Ona tilida so‘z turkumlari va ularni ajratish tamoyillari haqida umumiylar ma’lumot. Hozirgi ona tilida so‘zlarning ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, ko‘makchi, bo g‘lovchi, yuklama, modal so‘z, undov so‘z, taqlid so‘z turkumlariga ajratilishi.

**Ot.** Otning leksik-grammatik xususiyatlari. Otning ma’no turlari: atoqli va turdosh ot, aniq va mavhum, yakka va jamlovchi otlar.

Otlarda kelishik kategoriysi. Otlarning yasalishi: affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya usullari bilan ot yashash. Otlarda modal forma yasalishi. Otlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo‘shma, qisqartma, juft otlar.

**Sifat.** Sifatning leksik-grammatik xususiyatlari. Belgini darajalab ko‘rsata olishi - sifat darajalari: oddiy, qiyosiy va orttirma daraja. Sifatlarning otlashishi.

Sifatlarning yasalishi: affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan sifat yasash. Sifatlarda modal forma yasalishi. Sifatlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, birikmali va juft sifatlar.

**Son.** Sonning leksik-grammatik xususiyatlari, morfologik belgilari, sintaktik vazifasi. Sonlarning numerativ (sanoq) so'zlar bilan qo'llanishi. Sonlarning otlashish xususiyatlari. Sonning ma'no turlari: miqdor son va tartib son. Miqdor son turlari: sanoq, dona, chama, jamlovchi va taqsim sonlar. Butun son va kasr son, kasrli son. Sonning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, juft, takroriy sonlar.

**Olmosh.** Olmoshning grammatik ma'nosи, boshqa so'z turkumlariga morfologik ekvivalentligi (mosligi); otlashish xususiyatlari, gapdagi vazifasi.

Olmoshlarning ma'no turlari: kishilik, o'zlik, ko'rsatish olmoshlari. So'roq, belgilash, gumon, bo'lishsizlik olmoshlari. Olmoshning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, juft, takroriy olmoshlari.

**Fe'l.** Fe'lning leksik-grammatik xususiyatlari (leksik, morfologik belgilari, sintaktik vazifalari). Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, bo'lishsizlik ma'nosining ifodalanishi. Fe'l nisbat (daraja)lari: aniq, o'zlik, majhullik, bирgalik, orttirma nisbatlarining grammatik ma'nosи va shakllari. Fe'l mayllari (xabar mayli, shart va buyruq-istak mayli), ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Fe'l zamonlari, ularning turlari (o'tgan, hozirgi va kelasi zamon fe'llari), o'tgan zamon fe'lining turlari: yaqin o'tgan zamon fe'li, uzoq o'tgan zamon fe'li, o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davom fe'li, o'tgan zamon maqsad fe'li. Hozirgi zamon fe'lining turlari: Hozirgi-kelasi zamon fe'li, hozirgi zamon davom fe'li, Kelasi zamon fe'lining turlari: kelasi zamon gumon fe'li, kelasi zamon maqsad fe'li.

**Fe'llarning tuslanishi.** Shaxs-son (yoki tuslovchi) affikslari. Ularning turlari: 1-guruh, 2-guruh, 3-guruh tuslovchilari; ularning qo'llanish xususiyatlari.

Fe'lning vazifadosh shakllari - ma'lum bir sintaktik vazifa bajarishga mos shakllari: sof fe'l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi. Sof fe'l, uning kesim vazifasini bajarishga moslashganligi. Ravishdosh, uning grammatik ma'nosи, yasalishi; fe'l va ravishga xos xususiyatlari; Tuslanadigan va tuslanmaydigan ravishdoshlar. Sifatdosh uning grammatik ma'nosи, yasalishi; fe'l va sifatga xos xususiyatlari: (otlashish, shuningdek, tuslanish, zamon ifodalash xususiyatlari). Harakat nomi, uning grammatik xususiyatlari, yasalishi; fe'lga va otga xos xususiyatlari. Fe'lning yasalishi (affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan fe'l yasash). Fe'lning tuzilish jihatdan turlari: sodda va qo'shma fe'llar. Juft fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari. Fe'lning modal ma'no ifodalovchi shakllari: sintetik va analitik shakllari. Ko'makchi fe'llar. To'liqsiz fe'l.

**Ravish.** Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari. Ravishlarning ma'no turlari: holat, miqdor-daraja, payt, o'rin sabab, maqsad ravishlari. Ravishlarda daraja (oddiy, qiyosiy, orttirma darajalar). Ravishlarning yasalishi: affiksatsiya va

kompozitsiya usullari bilan ravish yasash. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, juft va takroriy ravishlar.

**Ko'makchilar.** Ularning grammatik xususiyatlari, turlari: asl ko'makchilar, ot ko'makchilar, fe'l ko'makchilar, Ko'makchi va kelishik qo'shimchalari. Ko'makchi otlar.

**Bog'lovchilar.** Ularning grammatik xususiyatlari. Bog'lovchilarning qo'llanishiga ko'ra turlari: yakka bog'lovchilar va takroriy bo g'lovchilar. Grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra bog'lovchilarning turlari: teng bog'lovchilar (biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi); ergashtiruvchi bog'lovchilar (aniqlov, sabab, shart va to'siqsizlik, chog'ishtiruv - o'xshatish bog'lovchilari.)

**Yuklamalar.** Yuklamalarning grammatik xususiyatlari. Yuklamalarniig tuzilishiga ko'ra turlari: so'z yuklamalar va affiks yuklamalar. Yuklamalarning ma'no turlari: so'roq va taajjub, kuchaytiruv va ta'kid, ayiruv va chegaralov, aniqlov, gumon, inkor yuklamalari.

**Modal so'zlar,** ularning ma'no va grammatik xususiyatlari, sintaktik vazifalari.

**Undovlar.** Ularning grammatik xususiyatlari. Undovlarning otlashishi, sintaktik vazifasi. Undovlarning turlari: his-hayajon (emotsional) va buyruq-xitob undovlari.

**Taqlid so'zlar.** Ularning grammatik xususiyatlari, otlashishi, taqlid so'zlarning sintaktik vazifasi; turlari: tovushga taqlid va shu'la-harakatga taqlid so'zlar.

### Sintaksis.

**Sintaksis haqida umumiylumot.** So'z birikmasi, gap bo'lagi va gap sintaksisning tekshirish obyekti sifatida. Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi; teng va ergash bog'lanish haqida umumiylumot. Ergash bog'lanish so'z birikmasini hosil qiluvchi sintaktik munosabat ekanligi.

**So'z birikmasi.** So'z birikmasining tuzilishi va grammatik ma'nolari. Birikma tarkibidagi so'zlarning aloqa turlari: boshqaruv, bitishuv, moslashuv. So'z birikmalarining turlari: hokim so'zning qaysi so'z turkumidan ekanligiga ko'ra turlari (otli, fe'lli, ravishli, sifatli, modal so'zli birikmalar). Tobe so'zning sintaktik vazifasiga ko'ra turlari (to'ldiruvchili, aniqlovchili, holli so'z birikmalar). Tuzilishiga ko'ra turlari: sodda so'z birikmalar, murakkab so'z birikmalar.

**Gap.** Gap - kommunikativ (aloqa) birlilik sifatida. Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari: darak, so'roq, buyruq gaplar. His-hayajoniga ko'ra turlari: his-hayajonli (undov) gaplar, his-hayajonsiz gaplar, ularning turlari (darak-undov, so'roq-undov, buyruq-undov gaplar). Gap bo'laklari haqida umumiylumot. Ega va kesim (bosh bo'laklar) ikki sostavli gaplarni shakllantiruvchi predikativ birliklar ekanligi. Ega va uning ifodalanishi. Kesim, uning ifodalanishi, tiplari: fe'l-kesim va ot-kesim; sodda va tarkibli kesim. Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi.

**Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari** (to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol). To‘ldiruvchi va uning ifodalanishi. Vositasiz va vositali to‘ldiruvchilar, ularning shakllanishi. Aniqlovchi va uning ifodalanishi. Sifatlovchi, qaratqich va izohlovchilar aniqlovchining turlari ekanligi. Hol va uning ifodalanishi, turlari: ravish holi, miqdor-daraja holi, payt holi, o‘rin holi, sabab holi va maqsad holi. Gap bo‘laklarining joylashish tartibi. Inversiya.

**Gapning uyushiq bo‘laklari;** uyushishning ifoda vositalari: sanash ohangi va teng bog‘lovchilar. Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumiy va umumlashtiruvchi birliklarning qo‘llanishi. Uyushiq bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

Gapning ajratilgan bo‘laklari, ularning ajratilish sabablari. Ajratilgan bo‘laklarning turlari: ajratilgan ega, ajratilgan kesim, ajratilgan aniqlovchi (ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratqich, ajratilgan izohlovchi), ajratilgan to‘ldiruvchi, ajratilgan hol. Ajratilgan bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

**Gap bo‘laklari sanalmaydigan birliklar** (so‘z va birikmalar) haqida ma‘lumot: undalma, kirish so‘z, kirish birikma va kiritma gaplar; ularning boshqa gap bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaslik va o‘ziga xos ohang xususiyatlari. Ularda tinish belgalarining ishlatilishi.

Bir bosh bo‘lakli gaplar, ularning tiplari: egasiz va kesimsiz bir bosh bo‘lakli gaplar. Egasiz bir bosh bo‘lakli gap turlari (egasi topiladigan va egasi topilmaydigan gaplar). Egasi topiladigan gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar. Egasi topilmaydigan - shaxssiz gaplar. Kesimsiz bir bosh bo‘lakli gap - atov (yoki nominativ) gaplar va infinitiv gaplar ekanligi.

Bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar (so‘z-gaplar), ularning o‘ziga xos xususiyatlari. To‘liq va to‘liqsiz gaplar. To‘liqsiz gaplarning tuzilish va qo‘llanish xususiyatlari.

**Qo‘shma gap.** Qo‘shma gap haqida umumiy ma‘lumot. Komponent (qism)larning birikish usuliga ko‘ra qo‘shma gap turlari: bog‘langan qo‘shma gap, ergashgan (ergash gapli) qo‘shma gap, bog‘lovchisiz qo‘shma gap.

Bog‘langan qo‘shma gap. Bog‘langan qo‘shma gap qismlarining mazmun munosabati. Komponent (qism)lar orasidagi teng aloqa bog‘langan qo‘shma gap qismlarining o‘zaro bog‘lanish usuli ekanligi. Teng bog‘lovchilar, teng bog‘lovchi vazifasidagi ayrim yuklamalar, "bo‘lsa", "esa" so‘z shakllari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar ekanligi. Bog‘langan qo‘shma gap qismlari (komponentlari) orasida tinish belgilarining ishlatilishi.

**Ergashgan qo‘shma gap.** Ergashgan qo‘shma gap - bosh va ergash gaplarning tobelik munosabati asosida vujudga keladigan sintaktik birlik sifatida. Bosh va ergash gap, ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Ergashtruvchi bog‘lovchilar, shu vazifadagi ayrim yuklamalar, ko‘makchilar, nisbiy so‘zlar, turli fe’l shakllari

(fe'lning shart, buyruq-istik shakllari. shuningdek, ravishdosh, sifatdosh va to'liqsiz fe'l ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar ekanligi.

Ergashgan qo'shma gapning turlari: ega ergash gapli qo'shma gap, kesim ergash gapli qo'shma gap, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap, ravish ergash gapli qo'shma gap, daraja-miqdor ergash gapli qo'shma gap, payt ergash gapli qo'shma gap, o'rin ergash gapli qo'shma gap, sabab ergash gapli qo'shma gap, o'xshatish ergash gapli qo'shma gap, shart ergash gapli qo'shma gap, to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap, natija ergash gapli qo'shma gap. Bunday gaplarda ergash gapning bosh gapdagi biror bo'lakni (qismni) yoki butun bir bosh gapni izohlash xususiyati. Ergashgan qo'shma gap komponentlari orasida tinish belgilarining ishlatilishi.

**Bog'lovchisiz qo'shma gap.** Intonatsiya (ohang) bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlarini o'zaro bog'lovchi vosita ekanligi. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarining birikish usullari (sanash va tobelanish ohanglari).

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi komponentlarning mazmun munosabati. Bog'lovchisiz qo'shma gap turlari: bir tipdagi va turli tipdagi komponentlardan tuzilgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

**Murakkab qo'shma gap.** Murakkab qo'shma gap uch va undan ortiq komponentlarning mazmun va ohang jihatdan bog'lanishidan tuzilgan sintaktik birlik sifatida. Murakkab qo'shma gaplarning turlari: 1) bog'langan qo'shma gap toifasidagi (bog'lanish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar; 2) ergashgan qo'shma gap toifasidagi (ergashish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar : a) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar; b) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar ; 3) bog'lovchisiz qo'shma gap toifasidagi (bog'lovchi vositalarsiz, ohang orqali tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar; 4) aralash tipda tuzilgan murakkab qo'shma gaplar. Murakkab (ko'p komponentli) qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

**Punktuatsiya (ishorat qoidalari).** O'zga gap va undan nutqda foydalananining o'ziga xos xususiyatlari. O'zga gap turlari: ko'chirma gapli qurilma, o'zlashtirma gap. Ko'chirma gapli qurilmaning tarkibiy qismlari: muallif gapi va ko'chirma gap, ularning o'zaro bog'lanishi. Ko'chirma gapning muallif gapiga nisbatan prepozitiv, postpozitiv va inpozitiv holatlarda qo'llana olishi ko'chirma gapli qurilmalarning o'ziga xos xususiyati ekanligi. O'zlashtirma gap, uning o'ziga xos xususiyatlari. Ko'chirma gapli qurilmalarda tinish belgilarining ishlatilishi. Ko'chirma gapli qurilmalarni o'zlashtirma gapga aylantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Ona tili punktuatsiyasining asosiy tamoyillari (mantiqiy-grammatik tamoyil, uslubiy tamoyil, differensiatsiya tamoyili). Ona tilida tinish belgilari va ularning tasnifi; tinish belgilarining qo'llanish o'rirlari.

Uslubiyat va uslubshunoslik.

**Nutq uslublari haqida ma'lumot.** Uslubiyat turlari: leksik, fonetik va grammatik uslubiyat haqida.

“Ona tili va bolalar adabiyoti” fanining “Bolalar adabiyot” qismi nazariy mashg‘ulotlari mazmuni:

1. Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari.
2. Bolalar kitobxonligi haqida.
3. Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog‘liqligi. Qo‘shiqlar. Maqollar. Topishmoqlar. Masallar. Tez aytishlar. Ertaklar. Adabiy ertaklar.
4. O‘zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi. O‘tgan asrning 30-40 – yillaridagi o‘zbek bolalar adabiyoti. Hozirgi davrdagi o‘zbek bolalar adabiyoti.
5. Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalar. Alisher Navoiyning pand-nasihat mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlar. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g‘oyalar.
Maktab tajriba maydonchasi va unda ishlarni tashkil etishga qo‘yiladigan talablar. O‘simpliklarni tanlash, sermahsul navlarini ekish va parvarish qilish. Maktab tajriba maydoni zoologiya bo‘limini tashkil etish va jihozlash. O‘quv-tajriba uchastkasining asbob-uskuna va vositalari. Maktab tajriba maydonidan olinadigan materiallardan o‘quv jarayonida foydalanish. Maktab tajriba maydonchasida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Tirik tabiat burchagi. Tirik tabiat burchagini tashkil etish, jihozlash, ularning tabiatshunoslikni o‘qitishdagi ahamiyati. O‘simpliklar va hayvonlar tanlash va

joylashtirish. Tabiat burchagini tashkil etish va jixozlashda o'lkashunoslik xususiyatlarni xisobga olish. Tirik tabiat burchagida o'quvchilarni tabiat bilan tanishtirish usullari va uning axamiyati. O'simliklar va hayvonlarning tasnifini tuzish, ularni parvarish qilish. Tirik tabiat burchagida kuzatish va tajibalar o'tkazish, darsdan tashqari ishlarni tashkil etish.

Boshlang'ich mакtabda o'lkashunoslik burchagi. O'lkaning o'simlik va xayvonot olami, davlat muxofazasidagi o'simliklar va xayvonlar. O'zbekistonning qizil kitobi. Boshlang'ich mакtablarda tabiatshunoslik fanining mazmuni, o'quv dasturini rejalashtirish tamoyillari.

O'zbekistondagi ta'lim islohotlari, boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslikni o'qitish xolati, muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Boshlang'ich mакtablarining tabiatshunoslik ta'limi kontseptsiyasi. Tabiatshunoslikdan davlat ta'lim standartlari mazmuni, tarkibiy qismlari, ta'lim mazmunining majburiy minimumi, xar bir sinf bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal va maksimal talablar. Tabiatdan o'quv dasturining tahlili. Dasturning tuzilishi va mazmuni. Dasturning asosiy bo'limlari va ularning o'zaro bog'liqligi.

Maktab o'quv rejasida «Atrofimizdag'i olam» predmetining o'rni. 1 va 2 sinfning atrofimizda olam o'quv dasturidan o'rin olgan atrof olam predmetlari ularning xususilatlari, tevarak-atrof bilan tanishish, tabiat va odamlar mehnatidagi mavsumiy o'zgarishlar kabi mavzular, vaqt taqsimoti, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, ekskursiyalar. Asosiy tabiat g'oyalar, tushunchalar, ko'nikmalar va malakalar.

3 - 4 sinflarda tabiatshunoslikning mazmuni. Tabiatshunoslik kursining asosiy g'oyalari (jonli va jonsiz tabiatni birligi, jonajon o'lkamiz tabiat). Tabiatdagi fasllar almashuvi, turlarning xilmi xilligi. O'quv dasturidan o'rin olgan mavzular, vaqt taqsimoti, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, ekskursiyalar. Asosiy tabiat g'oyalar, tushunchalar, ko'nikmalar va malakalar.

O'quv dasturni rejalashtirish tamoyillari. Tabiatshunoslik kursini predmetlararo bog'liqligi. Maktabgacha ta'lim muassalari va boshlang'ich sinf tabiatshunoslik dasturlarining izchilligi. Tabiatshunoslikni mакtabning boshlang'ich va yuqori sinf fanlari bilan predmetlararo boqliligi. O'quv materiallarni tanlashda o'lkashunoslik qoidalari.

Tabiatshunoslikdan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarning maqsadi, vazifalari, ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarning sinflar bo'yicha mazmuni, tuzilishi va ularni o'tkazish metodikasi. Atrofimizdag'i olam va tabiatshunoslik darsliklari bilan tanishtirish va mazmunining tahlili. Oz komplektlangan mакtablarda tabiatshunoslikni o'qitishning xususiyatlari.

Oz komplektlangan mакtablarda o'quv-tarbiya jarayonini tashkillashtirish xususiyatlari, dars o'tish tamoyillari va usullari. Tabiatshunoslikni o'qitishning

sinflar bo‘yicha tabaqlashtirilgan variantlari. Oz komplektlangan maktablarda mustaqil mashg‘ulotlarning o‘rni. Mustaqil ishlarning turlari va ularni tashkil etish qoidalari. Har xil sinf o‘quvchilarni ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda birlashtirish printsiplari. Oz komplektlangan maktablarda ekskursiyalar o‘tkazish tartibi va qoidalari. Darslarni integratsiyalash – oz komplektlangan maktablarning asosiy tamoyillaridan biri. Kuzatish va kuzatish kundaliklarni yuritishning xususiyatlari.

### **Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bo‘yicha:**

Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma’naviy qiyofasi o‘quvchilar ongingin va xulqining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Sinf rahbari uchun malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni o‘zi yetarli emas. U o‘z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o‘z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta’sir o‘gkazadi. Chunki, tarbiyachilik qobilyati juda ko‘p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko‘ngil qo‘yish, bolalarga bo‘lgan cheksiz, muhabbat muomala nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq tem’erament, oqil vaadolatlilik namunasi, alohida nazokat si’olik va vazminlik kabi fazilatlarning bo‘lishini taqozo qiladi. Bunga yana tarbiyachilik texnikasi qo‘srimcha ishda muvaffaqiyat ta’milanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarini tashkil etish metodikasi kursi predmeti, maqsadi va vazifalari. Sinf rahbari deganda o‘quvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilimi jihatidan ham teng bo‘lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog – sinf rahbari deb ataladi. Sinf rahbarining asosiy maqsadi, o‘quvchilarini to‘g‘ri tarbiyalash jarayonida o‘quvchi va sinf rahbari bilan bir-birini tushuna olishi va sinf rahbari tomonidan o‘quvchilarga e’tiborliroq bo‘lishi kerak. Maktabda o‘quvchilarga tarbiya sinf rahbarining ishlari orqali beriladi. Jumladan, tadbirlar, mushoiralar, har xil kechalar, uchrashuvlar, tanlovlardan boshqa o‘yinlar orqali o‘kuvchilarga ta’lim tarbiya beriladi. Shunga qarab o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanib boradi.

Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati, tashkil etish metodikasi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma’naviy qiyofasi o‘quvchilar ongingin va xulqining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Sinf rahbari uchun malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni o‘zi yetarli emas. U o‘z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi inson’arvarlik fazilatlari, o‘z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta’sir o‘gkazadi. Chunki, tarbiyachilik qobilyati juda ko‘p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko‘ngil qo‘yish, bolalarga bo‘lgan cheksiz, muhabbat muomala nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq tem’erament, oqil vaadolatlilik namunasi, alohida nazokat si’olik va vazminlik kabi fazilatlarning bo‘lishini taqozo qiladi. Bunga yana

tarbiyachilik texnikasi qo'shimcha ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir.

Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish shart-sharoitlari. Sinf rahbarining faoliyati kamol to'ayotgan kishi shaxsini tarkib to'tirishga qaratilgandir. Bu faoliyatning natijalari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarda, xarakter va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Agar tarbiyachi pedagog nimaga intilayotganini ravshan va aniq tushunilmagan joyda tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirishga astoydil intilish bo'lmaydi, balki tarbiyada o'tkaziladigan ish tasodifiy tusga ega bo'lib, buning uchun ajratilgan vaqtini to'ldirish uchungina olib boriladi. Tarbiya faoliyatining maqsadlarini aniq bilmagan va bu maqsadlarni hisobga olmagan holda to'la qimmatli tarbiya yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy ahloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Sinf rahbarining o'quvchilarini o'rganish metodikasi. Sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi bolalar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. Tarbiyaga kom'leks yondoshishi biror o'quvchini ham e'tibordan qochirmaslik sinf rahbari uchun alohida masaladir. Tarbiyalash uchun sinf rahbari tarbiya ob'ekti bo'lgan bolani yaxshi bilish, uni yaxlit idrok etishi kerak. SHuni ham unitmaslik kerakki, bolaga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omillar hozirgi davrda g'oyat darajada ko'paydi: oila, keng jamoatchilik, radio, televideniya kino, teatr, kitob, jurnal, musiqa va boshqalar.

Shaxsga jamoaviy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning shakl va metodlari. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning roli va ahamiyati. Odam bolasining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Bizga ma'lumki, hyoti davomida inson jismoniy va psixik tomonidan o'zgarib boradi, lekin bolalik va o'smirlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola manba shu yillarda ham jismoniy, ham psixik jihatdan o'sishi o'zgarishi shaxs sifatida kamolga yetadi. Bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol to'ib, murakkab ijtimoiy munosabatlar sistemasida o'ziga munosib o'rin egallaydi. SHaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va behato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasiga, turli munosabatlar doirasiga, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari ro'yobga chiqadi.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal qilish uchun uning xulqiga, ta’sir etuvchi omillarni, bu omillarning tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

O‘quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash. O‘quvchilarni bilimga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo‘llay bilishlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bu tajriba juda ko‘p maktablarda muvaffaqiyatlari qo‘llanilib kelinmoqda. O‘quvchilarga biror bir fan bo‘yicha ko‘rgazmali qurol yoki biror jihoz yasab kelish buyuriladi. Bunda «Agar tirishsang, bu sening qo‘lingdan keladi» degan ga’ni uning qulog‘iga quyish kerak. Buni o‘quvchi nafaqat oddiy to‘shiriq, balki o‘qituvchining ishonchi sifatida ham qabul qiladi. To‘g‘risini aytganda, bunday narsalarni yasash uchun o‘quvchi yetarli nazariy bilimga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchi to‘shiriqni ‘uxta qilib bajarishi uchun u yoki bu fan asoslarini o‘rganishga, o‘z bilimini chuqurlashtirishga harakat qiladi, o‘zi yasayotgan o‘quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. SHu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zamirida mehnat yotganligini his qiladi, sinf va maktab jihozlarini avaylashga o‘rganadi.

O‘quvchilarning o‘quv faoliyati samaradorligini oshirish borasida sinf rahbari olib boradigan ishlar. Bolalarmi o‘rganish ularga tarbiya va ta’lim berish sifatini oshirishga bo‘ysindirmog‘i lozim. O‘quvchilarni muntazam tarzda o‘rganish asosida boshlang‘ich jamoaga hamda alohida o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etishining yanada samarali usul va metodlarini tanlab olishga ijodiy yondashish mumkin bo‘ladi.

Maktab o‘quvchilari shaxsini har tomonlama kamol to‘shirish. Bola shaxsining rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta’sir etadi. Agar bola o‘z layoqatiga mos sharoitda o‘sib, zarur faoliyat bilan shug‘ullansa, layoqat erta ko‘rinib, rivojlanishi, aks holda yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. SHuning uchun pedagogik layoqatning namoyon bo‘lishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi to‘la-to‘kis hayot sharoitiga va tarbiyaga bog‘liq. Inson kamolotiga ta’sir etadigan omillardan biri tashqi muhitdir. Muhit deganda kishiga tabiiy ta’sir etadigan tashqi voqealar majmui tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhit (mikromuhit) kiradi.

Sinf rahbarining oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari. Inson kamoloti shunchalik murakkabki unga hayotiy tajriba yetarli emas uning uchun o‘rganish, bilim, o‘qish nihoyatda zarurdir. K.D.Ushinskiy «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» hamda «pedagogik adabiyot orasida»gi risolalarida Ota-onal uchun pedagogik bilim dastlab pedagogik adabiyotlar o‘rganishdan boshlanadi. Bola tarbiyasidagi bilim xalq ruhi bilan sug‘orilgan-xalqchilik g‘oyasiga asoslangandagina ota-onal bilimdon tarbiyachilik san‘atiga ega bo‘la oladilar», – deyilgan. pedagogik bilim ota-onalar uchun nihoyatda zarur. Bu bilim mакtabda, mahallada va kundalik axborot vositalari orqali berib boriladi. Lekin hayotimizdagi yangi-yangi

muammolar pedagogik bilimini yanada kuchaytirishni, chuqurlashtirishni talab etadi.

Sinf rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olish.Sinf rahbari o‘z ishlarini maktab ma’muriyati rahbarligi va bolalar tashkilotlari bilan hamkorlikda olib boradi. SHuning uchun uning faoliyatini rejalashtirish umummaqtab hamda bolalar va o‘smirlar, «Kamolot» jamg‘armasi ishining rejalashtirilishi bilan uzviy ravishda bog‘langandir.Sinf rahbari ishini rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o‘quvchilarning o‘zlarini faol ishtirot etadilar, biroq unga sinf rahbari boshchilik qiladi. Sinf rahbarlari oldida juda qiyin vazifa – tarbiyaviy maqsadlarda o‘ylangan har bir narsani bolalar o‘zlarining shaxsiy fikr va g‘oyalari sifatida qabul qilishlariga erishish vazifasi turadi.Reja – o‘quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy shartidir. Rejasiz ish olib borish sinfdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakllari va uslublari o‘lda-jo‘lda, tarqoq, noaniq, tasodifiy holatlarda bo‘ladi va ko‘r-ko‘rona harakat qilishga olib keladi. Bunday taqdirda tarbiyaning asosiy vazifalarini hal etish qiyinlashadi, ba’zan esa butunlay samarasiz bo‘ladi. Reja sinf rahbariining tarbiya berish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish uchun juda katta imkoniyatlar ochib beradi.

Sinfdan va mактабдан ташқари тарбиyaviy ishlar kursining ‘redmeti, maqsadi va vazifalari.Sinfdan va mактабдан ташқари тарбиyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo‘nalishlarini to‘ib joriy etishga bog‘liq. Ushbu Kontse’tsiya ham xuddi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo‘naltirilgan.Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ko‘rib chiqilishi, asosiy e’tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida toplangan ijobjiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamg‘armalar, qo‘mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.Sinfdan va mактабдан ташқари тарбиyaviy ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi. U o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligani oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan ташқари ishlarning o‘ziga xosligi shundaki, to‘garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o‘smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Sinfdan va mактабдан ташқари тарбиyaviy ishlarni tashkil qilishning ilmiy va nazariy asoslari.Maktabning o‘quvchilar bilan olib boradigan o‘quv mashg‘ulotlaridan ташқари xilmag‘xil ta’lim-tarbiya ishlari sinfan ташқари ishlar nomini olgan. Sinfdan ташқари ishlar maktab ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini yo‘lga qo‘yish formalaridan biridir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularni dunyo qarashini to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol to‘ishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyat, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog‘lanishiga zamin yaratadi.Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta’siri ko‘p darajada o‘quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o‘quvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yo‘lga qo‘yishga bog‘liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o‘quvchilarni ihtiyyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va unga qo‘yilgan pedagogik talablar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o‘ziga xos qoidalarga egadir:Har bir sinf jamoasining tarbiyalangan darajasini o‘rganish.O‘quvchilarining oilavny hayoti, ota-onaning farzand tarbiyalashdagi burchi va vazifasini qanday his etishi.Kundalik o‘zgarishlarga o‘quvchilarshshg munosabati.O‘quvchilarining sharqona milliy urf-odat, an‘analar haqidagi bilim darajasi.Qomusiy ma’rifat’arvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarining ijodiyotidan namuna bilishlari. Mazkur qoidalalar bog‘chada sodda holda qo‘llaniladi.

Sinfdan va maktbdan tashqari ishlarni tashkil qilishda tashkilotchining ish metodikasi.Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ishlab chiqiladi.Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi ta’siri ostidagi o‘quvchilarining o‘z-o‘zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o‘tkaziladigan mustaqil mashg‘ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta’limning moddiy bazasi: qo‘sishmcha va ma’lumotnomma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko‘rgazmali qo‘llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko‘zda tutiladi.

Tashkilotchi va o‘quvchilarining o‘z-o‘zini boshqarish ishlarining metodikasi.O‘quvchilarining o‘z-o‘zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashuvi ularning ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishning ta’sirchan vositasidir. Bu bolalar va o‘smirlarning fuqarolik, demokratiya borasidagi tushunchalarini kengaytiradi,O‘z-o‘zini idora qilish – tashabbuskorlik va mustaqillik maktabidir. O‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqaruvi o‘quvchilar tomonidan fan va mashg‘ulotlarning to‘liq o‘zlashtirilishiga, biror kasb o‘rganishiga, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanishiga, Vatan himoyachisi bo‘lishiga maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda, Davlat, jamoat mulkini ko‘z qorachig‘iday asrashga, tabiatni muhofaza etishga ko‘maklashadi.

Sinfdan va mактабдан ташқари тарбијавији ишларни рејалаштириш методикаси. Sinfdan va mактабдан tashqari ishlarning umummaqtab rejasini ma’naviy va ma’rifat bo‘yicha direktor o‘rinbosari rahbarligida, sinf rahbarlari, metodik birlashmasi, tajribali o‘qituvchilar, mакtab kutubxonasi, o‘quvchi-yoshlar tashkiloti, o‘quvchilar uyushmasi, ota-onalar komiteti hamda to‘garak rahbarlarining faol ishtirokida tuzish hamda uni mакtabning yig‘ilishida muhokamadan o‘tkazib tasdiqlash maqsadga muvofiqdir. Sinf rahbarining tarbiјавији иш rejasi bu majburiy pedagogik hujjatdir. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishi mumkin. Hozirgi sharoitda tajribalarning ko‘rsatishiga binoan yarim yillik rejasidan foydalanish ancha samara bermoqda. Rejalashtirishda quyidagilar nazarda tutilsa, uning samarasi oshadi.

Tashkilotching oila va jamoatchilik bilan hamkorlikdagi tarbiјавији ишлар методикаси. Sinf va mактабдан tashqari mazkur tarbiјавији ишлар shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan va mактабдан tashqari tarbiјавији ишлар tizimida quyidagilar bo‘lishi lozim:

- ulg‘ayayotgan inson shaxsini tarbiјада oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigitning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy xuquqini e’tiborda tutish zarur.
- milliylikning o‘ziga xos an’ana vositalariga tayanish.
- pedagoglar o‘rtasida o‘zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish.

Oila va mahallaning yuksak tarbiјавији imkoniyati bolalar va ota-onalarning o‘ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, qo‘ni-qo‘shniligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch xissi, obro‘ligi va hokazolar bilan ta’milanadi.

Tarbiјавији ишларни amalga oshirishda pedagogik mahorat va uning asosiy tamoyillari. Ijodkor ilg‘or o‘qituvchi-tarbiyachilar o‘z faoliyatlarini jarayonida tarbiјавији ишларни tashkil qilishda quyidagi mahorat tamoyillarini asos qilib oladilar: tarbiјавији tadbirlar o‘tkazishdan maqsad milliy ma’naviyatni yosh avlod ongiga singdirish va e’tiqodiga aylantirishdan iborat ekanligi; tarbiya jarayonining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lab bola qalbiga va ongiga ta’sir ko‘rsatish; tarbiјавији ишларни o‘quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyani ta’lim bilan uzviyligini ta’minalash; tarbiya jarayonida bolalarni tarbiyalangan darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o‘stirish; bola shaxsiga hurmat va talabchanlik, kabi. Tarbiјавији ишларни tashkil qilish tamoyillari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkonta ega bo‘lib, uni qay darajada olib borish tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog‘liqdir. Tarbiјавији ишлар samaradorligini ta’minlovchi muhim omil pedagogik mahoratdir. Tarbiyachining pedagogik mahorati ko‘p qirrali bo‘lib u: mehribon bolalar hamkorligida; o‘quv-tarbiya jarayonidagi hamkorlikda; bolalarning qayg‘u-xasrati, g‘ami va omadsizligiga hamdard bo‘lishda; muomala madaniyatida; chuqr bilim egasi

bo‘lishida; o‘qituvchining ruhiy holatida (samimiylik xayrixohligi, olivjanobligi); jamoa bilan ishslashda vaziyatni ijobiy tomonga san’atkorona yo‘naltirishda namoyon bo‘ladi.

Jamoani tashkil etish metodikasi. Sinf rahbari ishida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash-tarbiyaning yetakchi ‘rintsi’idir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi hozirgi kunda ancha to‘liq va mukammal ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kursida bayon etaman, jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqishilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo‘yshi; faollarini tarbiyalash, o‘quv mehnat, ijtimoiy siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatidagi istiqbollarni tashkil etish; sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an’analarni yaratish, va ko‘paytirish.

Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni tarbiyalash. O‘qituvchi faoliyatida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo‘yish, faollarini tarbiyalash, o‘quv, mehnat, ijtimoiy siyosiy va ommaviy- madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an’analarni yaratish va ko‘paytirish.

Jamoada o‘quvchilarning o‘rtoqlik va do‘stlik hislarini tarbiyalash

Insonning ajoyib fazilatlaridan biri-do‘stlikdir. Kishi kishiga do‘st, o‘rtoq va birodar-bu kommunizm quruvchisining ahloqiy ‘rintsi’i, kishilar o‘rtasida inson’arvarlik munosabatlari va o‘zaro hurmat demakdir. Do‘stlik bor joyda mehri muhabbat, vafo, sadoqat, samimiylik,adolat, haqiqat qaror topadi, bu esa insonning qalbiga, ruhiga, tafakkuriga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, yaxshilikka undaydi.

Maktab oila va jamoatchilik hamkorligi. Bolalarmi barkamol inson qilib tarbiyalashda maktabning oila va jamoatchilik bilan bo‘ladigan aloqalarini yo‘lga qo‘yish muhim shartdir. SHuning uchun ham ota-onalar o‘rtasida pedagogik-metodik tashviqotlarni olib borish maktabning ijtimoiy hayotda ota-onalar ishtirokini ta’minalash ayniqsa muhimdir. Boladagi juda ko‘p sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, shakllantiriladi. Bunda shu narsaga e’tibor berish kerakki, oilaning o‘zi yolg‘iz komil insonni tarbiyalab chiqishi juda qiyin, maktabdagi ijtimoiy tarbiya oila tarbiyasini to‘ldiradi.

**2. Tadqiqotlar sohasida ilmiy mushohada va ilmiy tahlil masalalari, yangi g‘oyalarni shakllantirish.** Boshlang‘ich ta’limda tadqiqotlar metodlarining darajalari va yondashuvlari. Boshlang‘ich ta’limda fanlarni o‘qitishda didaktik tamoyillari, uslublari hamda ularning xususiyatlari. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan fanlarning nazariy asoslari, boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasini bilishi, umumiy ilmiy uslublar, boshlang‘ich sinfda ona tili, matematika, mehnat, tabiat

fanlarini o‘qitish, shuningdek tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasini tashkil etish yo‘llari. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitiladigan fanlarning tadqiqot uslublari va yondashuvlari. Boshlang‘ich ta’limda tadqiqotlar jarayonida ilmiylikka asoslangan xulosalarni chiqarish. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ma’lumotlarni jamlash va klassifikatsiyalash, ularni qiyosiy va ilmiy tahliliy taqqoslash, solishtirish olingan xulosalarni ilmiy ravishda bayon eta olish, ilmiylik nuqtai-nazaridan yondashib didaktik tamoyillarni chuqur anglagan xolda xulosalash.

Boshlang‘ich ta’limning metodologik masalalari. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqot olib borishda material yig‘ish, tahlil qilish, bir tizimga keltirish. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqotlar va ilmiy tadqiqot faoliyatining amalda qo‘llanilishi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy farazlarni belgilash, tadqiqot natijalarini aniqlash, ilmiy xulosalarini asoslab bera olish, ilmiy tavsiyalarni ilgari sura olish layoqatining mavjudligi, tarixiy tahlil jarayonida yangi ilmiy qarashlar va yangi g‘oyalarni shakllantira olish.

**3. Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish.** Boshlang‘ich ta’limda o‘qitishda didaktik tamoyillar. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqotlarda adabiyotlar bilan ishlash. Boshlang‘ich ta’limda matematik uslublar. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqotlarida fanlararo yondoshuv,integratsiya,innovatsiya. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini tashkillashtirish tamoyillari va vazifalari tadqiqotlarning ilmiy metodologik jihatlari.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqotlarni o‘rganishda asos bo‘luvchi manbalar xaqida tushuncha. Boshlang‘ich ta’limning metodologik masalalari,boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasini o‘rganish.,tahlil qilish,xulosa chiqarish.

Tadqiqotlarni samarali olib borish muammolari, ilmiy ishlarni yozish usullari.Tadqiqot mavzusini tanlash, mavzuning o‘rganilishi darajasini aniqlash, ish rejasini tuzish. Topilgan dalillarni tanlash va reja bo‘yicha joylashtirish. Boblarni tuzish va joylashtirish usullari. Asosiy qismning yozilishi. Kirish va xulosa qismlarining yozilishi. Tarix fani tadqiqotlarida ilmiy ma’lumotnomma apparatining o‘rni va axamiyati. Sitata, izox, ilova va qaydlarni to‘g‘ri tashkil etish usullari. Foydalanilgan adabiyotlarni matnga qayd etish tartiblari. Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxatining tuzilishi. Ishning betlarini raqamlash va mundarijasini to‘g‘ri tashkil etish.

**4. Ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari haqida umumiyl tushunchalarga ega ekanligi.** Boshlang‘ich sinfda ona tili, matematika, mehnat, tabiat fanlarini o‘qitish, shuningdek tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasini ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uslublari va tamoyillari metodikasining ilmiy tadqiqot metodlari va ilmiy tadqiqot bosqichlari, ilmiy

tadqiqot o'tkazish shakllari, ilmiy-metodik tadqiqotlarga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

Olimlarining boshlang'ich ta'limnini o'qitishga oid qarashlari. O'quv jarayonining axborot ta'minoti va o'qitishning zamonaviy talablari.

**5. Tadqiqot natijalarini ilmiy jamoatchilikka tushuntira olish qobiliyatি** ilmiy nashrlarda e'lon qilgan ishlarning, jumladan, metodik qo'llanmalar va ishlanmalarning mavjudligi, xalqaro hamda respublika miqyosidagi ilmiy maqolalarning mavjudligi, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalardagi ishtiroki va ilmiy ishlarining e'lon qilinganligi kabilar bilan aniqlanadi.

### **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2017, 486.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2017, 32.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2017, 32.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent, 2020. 29 dekabr.
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat", 2008, 176.
6. Barkamol avlod orzusi (tuzuvchilar: Qurbonov Sh., Saidov H., Ahliddinov R.) Toshkent, "Sharq", 1999, 184.
7. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, "Sharq", 1998, 63.
8. Boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasi. 2015, 22.
9. Umumiy o'rta ta`limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Boshlangich ta'lim. Toshkent . 2017, 245.
10. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Muxitdinova M.N., Tosho'latova M.I., Raximova F. Matematika. TDPU. (Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish bakalavriyat ta'lim yo'naliishi talabalari uchun darslik) Toshkent-2012, 284 bet.
11. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2013. – 136 b.
12. Hamrayev M. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari. "Sharq" NMAK, 2015.

13. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G‘ulomova X., Sh. Yo‘ldosheva Sh. Ona tili (darslik) Moliya- Iqtisod, Toshkent, 2007.
14. Ibrohimov R. «Matematikadan masalalar to‘plami». T. O‘qituvchi, 1995.
15. Ikromova R., Muhamedova D., Hamrayev M. Ona tilidan mashqlar to‘plami (o‘quv qo‘llanma) TDPU, Toshkent, 2009.
16. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
17. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti (darslik) –T.: O‘qituvchi, 2011.
18. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O O‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiya” 2005.
19. Jumayev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. (OO‘Yu uchun o‘quv qo‘llanma) Toshkent. “O‘qituvchi” 2004.
20. Jumayev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan laboratoriya mashg‘ulotlari. (OO‘Y uchun o‘quv qo‘llanma) Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2006.
21. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Yu uchun darslik.) Toshkent. “Turon iqbol” 2016, 426.
22. Matchonov S., G‘ulomova X. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Toshkent, “Yangiyul”, 2008, 224.
23. Matchonov S., G‘ulomova X. 4-sinfda o‘qish darslari. Toshkent, “Yangiyul”, 2008, 190.
24. Matchonov S., Bakiyeva H., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2021, 690.
25. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi O‘quv qo‘llanma.2007, TDPU.
26. Mavlonova R.A., Vohidova N.A., Raxmonqulova N.X. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010.
27. Mirzaxmatova Sh., Pulatova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta’lim (Uslubiy qo‘llanma) –T.: “Yangi asr avlodi”, 2011-yil. – 44 b.
28. Tadjiyeva Z.G‘ va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan dars samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanish. Toshkent. TDPU, 2008.
29. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent “Noshir”, 2009, 351.
30. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent “Universitet” 2006.
31. Xamedova N.A, Ibragimova Z, Tasetov T. Matematika. Darslik. T.: Turon-iqbol, 2007. 363b.
32. Xoshimov K., Ochilov S. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T: O‘qituvchi 2010.
33. Yormatova D. Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiysi. T., «Aloqachi»

nashriyoti, 2008, 312.

34. G'affarova T., Nurullayeva Sh. Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili va o‘qishdan didaktik materiallar. Toshkent “Ilm ziyo” nashriyoti, 2004, 80.

### **Elektron ta’lim resurslari**

1. www. pedagog. uz
2. www. Ziyonet. uz
3. www. edu. uz

## **MUTAXASSISLIK FANIDAN BAHOLASH MEZONI**

**5A111701 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)** magistratura mutaxassisligiga kirish imtihonlari yozma shaklda o‘tkaziladi. Har bir variantda 4 tadan savol bo‘lib, savollar 5111700 – Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar blokidagi ona tili o‘qitish metodikasi, ona tili va bolalar adabiyoti, matematika o‘qitish metodikasi, boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi, texnologiya (mehnat) va uni o‘qitish metodikasi, tabiat o‘qitish metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi kabi assosiy fanlarni qamrab olgan. Beriladigan 4 ta savol uchun jami **100** ball belgilandi.

Yozma shakldagi 4 savolga javob yozish uchun 3 soat (180 daqiqa) beriladi.

Har bir savolga to‘g‘ri va to‘liq javob yozilsa, o‘z fikrini aniq faktlar asosida bayon qilsa, javoblar mustaqil fikri asosida yoritilsa, muammolarga ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, misol yoki masala o‘z yechimini topsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **21,5-25** ball bilan baholanadi.

Masalaga to‘g‘ri yondashsa, savolga to‘g‘ri javob yozilsa, javoblarni izohlashda ayrim noaniqliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, ayrim orfografik va grammatik xatolar bo‘lsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **17,8-21,4** ball bilan baholanadi.

Masala to‘liq yechimga ega bo‘lmasa, savolga, asosan to‘g‘ri javob yozilsa, biroq qo‘yilgan masalaning mohiyati, mazmuni, natijalari yuzaki yoritilsa, fikr-mushohada bayonida tarqoqlik kuzatilsa **13,8-17,7** ball oralig‘ida baholanadi.

Savolga javoblar noto‘g‘ri yozilsa, o‘quv adabiyotidan so‘zma-so‘z ko‘chirilgan bo‘lsa, savol umuman, javob berilmagan bo‘lsa, misol yoki masala umuman yechimga ega bo‘lmasa, **0-13,7** ball oralig‘ida baholanadi.

**IZOH:** Ushbu mezon **1 ta** savolga berilgan javobga qo‘yilgan ball bo‘lib, talabgor **4 ta** savolga ham ushbu mezon asosida javob berishi kerak bo‘ladi. Shunda yozma ish buyicha umumiy **100** ballni to‘plash imkoniyatiga ega bo‘ladi

### **Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar ijodiy imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmuni faqat o'zlarining to'plagan ballari yuzasidan bo'lsa qabul qilinadi. Apellyatsiya komissiyasi a'zolari institut rektori buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Kafedrasi mudiri:

f.f.d. Ernazarova M.S.

---



---